

MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

No 9

2025
sentyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

OPEN
ACCESS

ULRICH'S WEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE


ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
Российский экономический университет
имени Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛЯЛ

TDIU
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
1931

TDU
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

TDTU
TOSHKENT DAVLAT TEKHNICHKA UNIVERSITETI
1955

TJU
TOSHKENT DAVLAT ARKHITKTURA-QURILISH UNIVERSITETI
1955

TDF
TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

TAT
TOSHKENT KIYOG - TEKNOLOGIYA INSTITUTI
1991

TZPI
TOSHKENT POLITEKNIKA INSTITUTI
1940



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbanov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyedtinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer ustii majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatalish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyoziy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'ssatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-teknologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Olmazor tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari va boshqaruv tizimini tahlil qilish	12
Muminov Fazliddin Xusniddin o'g'li	
Transport va logistika sohalarida sun'iy intellektni qo'llash istiqbollari	19
Usmonov Abbos Valijon o'g'li	
Using matrix analysis methods in marketing strategy in manufacturing enterprises	23
Sheraliev Axror Sodiqovich	
Yer osti konlari suvlari haydash tizimida ejektorli nasoslarni qo'llash imkoniyatlarini tadqiq qilish	30
Xatamova Dilshoda Narmuratovna, Yuldasheva Mohinur Abduxakim qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kreditlash amaliyotining me'yoriy jihatlari va huquqiy asoslari	37
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich	



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARI KREDITLASH AMALIYOTINING ME'YORIY JIHATLARI VA HUQUQIY ASOSLARI

Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti mustaqil izlanuvchisi, PhD

Annotatsiya: Ushbu ilmiy ishda O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining kreditlash faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar, qonunchilik asoslari va amaliyotdagi mavjud mexanizmlar tizimli ravishda tahlil etilgan. Kreditlash jarayonida banklar uchun asos bo'lvchi normativ-huquqiy baza, xususan, "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qarorlari, kredit siyosatini shakllantirish bo'yicha ichki tartib-qoidalar hamda xalqaro moliyaviy me'yorlarga (IFRS, Basel III) moslashtirish jarayonlari o'rganilgan. Tadqiqot davomida tijorat banklarining kredit berish vakolati, qaror qabul qilish tartibi, kredit sharhnomalarining yuridik kuchi, garov va ta'minot mexanizmlari, kredit risklarini boshqarish hamda muammoli kreditlarni huquqiy jihatdan qayta tiklash amaliyoti tahlil qilingan. Shuningdek, tijorat banklari faoliyatiga tegishli huquqiy-hisobot majburiyatları, kredit portfeli monitoringi va moliyaviy intizomni ta'minlovchi nazorat mexanizmlari ko'rib chiqilgan. Ushbu tadqiqot natijalari asosida O'zbekistonda kreditlash mexanizmining normativ-huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish, xalqaro standartlarga uyg'unlashtirish va tijorat banklarining huquqiy muhitda samarali faoliyat yuritishini ta'minlash bo'yicha ilmiy hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, kreditlash mexanizmi, me'yoriy hujjatlar, huquqiy asoslar, kredit sharhnomasi, garov, kredit riski, Markaziy bank, Basel III, IFRS, moliyaviy nazorat, bank qonunchiligi.

Abstract: This research explores the regulatory and legal foundations of the credit mechanisms employed by commercial banks in the Republic of Uzbekistan. The study provides a comprehensive analysis of national legislation governing credit activity, including the Law "On Banks and Banking Activity," the regulatory framework of the Central Bank, internal banking policies, and the ongoing alignment with international standards such as IFRS and Basel III. The paper examines key legal aspects of credit issuance, decision-making procedures, enforceability of loan agreements, collateral and guarantee mechanisms, credit risk management, and the legal handling of non-performing loans. It also addresses reporting obligations and supervisory mechanisms that ensure financial discipline within the banking sector. Based on the findings, the study proposes scientific and practical recommendations aimed at enhancing the regulatory and legal environment of credit operations and improving the operational effectiveness of commercial banks in Uzbekistan in accordance with global best practices.

Keywords: commercial banks, credit mechanism, regulatory framework, legal foundations, loan agreement, collateral, credit risk, Central Bank, Basel III, IFRS, financial supervision, banking legislation.

Аннотация: В данной научной работе рассматриваются нормативно-правовые основы кредитной деятельности коммерческих банков в Республике Узбекистан. Особое внимание уделено анализу действующего законодательства, регулирующего кредитование, включая Закон «О банках и банковской деятельности», нормативные акты Центрального банка, внутренние регламенты банков, а также процесс гармонизации с международными стандартами (IFRS, Basel III). Исследование охватывает юридические аспекты предоставления кредитов, процедуры принятия решений, правовую силу кредитных договоров, механизмы обеспечения (залог, гарантии), управление кредитными рисками и правовое регулирование проблемных кредитов. Также рассматриваются обязательства по отчетности и контрольные механизмы, обеспечивающие финансовую дисциплину в банковской системе. По результатам исследования выработаны научные и практические рекомендации по совершенствованию нормативно-правовой базы кредитования, усилению правовых гарантий и повышению эффективности деятельности коммерческих банков в Узбекистане в соответствии с международными стандартами.

Ключевые слова: коммерческие банки, механизм кредитования, нормативные документы, правовые основы, кредитный договор, залог, кредитные риски, Центральный банк, Базель III, МСФО, финансовый контроль, банковское законодательство.



KIRISH

Mamlakatda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, real sektorga yo'naltirilgan Investitsiyalarni rag'batlantirish va xususiy tadbirdorlikni kengaytirishda tijorat banklarining kreditlash faoliyatini muhim strategik ahamiyatga ega. Banklar tomonidan taqdim etilayotgan kredit resurslarining huquqiy asosda maqsadli va xavfsiz taqsimlanishi nafaqat bank tizimining ichki barqarorligini, balki umuman iqtisodiy taraqqiyot sur'atlarini belgilab beradi. Shu sababli, kreditlash jarayonining me'yoriy tartibi va huquqiy bazasi zamonaviy moliyaviy tizimda ajralmas element sifatida qaraladi.

O'zbekiston Respublikasida kreditlash faoliyatini tartibga soluvchi asosiy huquqiy hujjatlar — "Banklar va bank faoliyatini to'g'risida"gi Qonun, Fuqarolik kodeksi, Markaziy bankning normativ hujjatlari, shuningdek, tijorat banklarining ichki kredit siyosati va reglamentlari bilan belgilanadi. Mazkur huquqiy asoslar kredit berish tartibi, garov va ta'minot mexanizmlari, foiz stavkalari, shartnomaviy majburiyatlar va risklarni boshqarish mexanizmlarini huquqiy jihatdan rasmiylashtiradi.

Biroq mavjud amaliyat tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekiston bank tizimida ayrim huquqiy bo'shlqlar, normativ tafovutlar va xalqaro moliyaviy me'yorlarga (Basel III, IFRS 9) to'liq mos kelmaydigan jihatlar mavjud. Bu esa kredit risklarini baholash va yuridik himoya masalalarida noaniqliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi O'zbekiston tijorat banklari tomonidan kreditlash mexanizmining amaldagi me'yoriy-huquqiy asoslarini tahlil qilish, xorijiy tajriba bilan solishtirish orqali ularni takomillashtirish yo'llarini aniqlash hamda xalqaro standartlarga moslashtirish imkoniyatlarini asoslab berishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOLAR SHAHRI

Tijorat banklari tomonidan kreditlash mexanizmining me'yoriy jihatlari va huquqiy asoslarini o'rganish, bank tizimining huquqiy mustahkamligi va moliyaviy barqarorligini ta'minlashda asosiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bu sohada olib borilgan nazariy va amaliy tadqiqotlar kredit siyosatining huquqiy muvofiqligini, kredit munosabatlarning tartibga solinishi va xavf-xatarlarning yuridik darajada boshqarilishini chuqur tahlil etish imkonini beradi.

Mahalliy tadqiqotlar ichida Komilov U.K. (2022) tomonidan yozilgan "Tijorat banklari faoliyatini boshqarish" nomli asarda banklarning kredit siyosati huquqiy me'yorlar bilan uyg'un ravishda olib borilishi, xususan, garov huquqi, shartnoma shartlari, monitoring mexanizmlari va kredit intizomi me'yoriy asoslarda belgilanishi lozimligi alohida ta'kidlanadi. Shuningdek, Karimova D. (2021) tomonidan taqdim etilgan maqolada kredit siyosatida normativ-huquqiy aktlar va Markaziy bank ko'rsatmalarining ahamiyati, kredit rejalashtirishda huquqiy tafsilotlarning aniqligi tijorat banklarining kredit xavfsizligini oshirishda muhim omil ekan ko'rsatib beriladi. Rahmatova N. (2021) esa o'z ilmiy ishida kredit risklarini baholash va yuridik jihatdan xatarlarni kamaytirish uchun normativ-huquqiy asoslar mustahkam bo'lishi kerakligini, ayniqsa qarzdorlikni qaytarishdagi nizolarni huquqiy hal qilish mexanizmlari muhimligini ta'kidlaydi.

Raqamli texnologiyalar kreditlashda huquqiy jihatdan yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Toshpulatov D. (2022) "Banklarda raqamli kreditlash mexanizmlarini joriy etishning dolzarb masalalari" nomli ishida elektron kredit shartnomalari, elektron identifikatsiya va raqamli hujjat aylanishi bilan bog'liq huquqiy masalalarni ko'taradi. U raqamlashtirish jarayonida kredit-huquqiy munosabatlarning tartibga solinishi masalasiga alohida e'tibor qaratadi.

Xalqaro adabiyotlar esa bank kreditlash mexanizmini yuridik tartibga solishning ilg'or tajribalarini aks ettiradi. Masalan, European Banking Authority (2023) tomonidan e'lon qilingan "Guidelines on Loan Origination and Monitoring" hujjatida kredit ajratishdan tortib monitoringgacha bo'lgan bosqichlarning huquqiy asosları va banklar zimmasidagi mas'uliyat aniq ko'rsatib beriladi. Berger A. va Udell G. (2006) o'z maqolalarida kredit resurslarining qonuniylik asosida taqsimlanishi, kichik biznesga ajratilayotgan kreditlar shartlarini yuridik jihatdan himoyalash va shartnoma erkinligini qo'llab-quvvatlash masalalarini yoritgan. Boot A. va Thakor A. (2010) tomonidan olib borilgan tadqiqotda esa bank-mijoz munosabatlarda huquqiy shartlarning aniqligi, mijozning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish, majburiyatlarini yuridik asosda belgilash risklarni boshqarish mexanizmlarining ajralmas qismi sifatida ko'rsatilgan.

Shuningdek, Hasanov S. (2023) tomonidan yozilgan "Kreditlashda IFRS 9 standartlarini qo'llash tajribasi" maqolasida moliyaviy hisobot standartlariga mos kredit risklarini baholash va ularni huquqiy hujjatlar bilan rasmiylashtirish muhimligi ko'rsatib o'tiladi. Mavjud adabiyotlar kreditlash mexanizmining huquqiy va me'yoriy asosları bank tizimining samarali ishlashi uchun poydevor ekanini ko'rsatadi. Normativ-huquqiy bazaning aniqligi, xalqaro me'yorlarga muvofiqligi, shartnoma huquqi, garov mexanizmlari va yuridik xavfsizlikning ta'minlanishi kreditlash samaradorligi va barqarorligining kaliti hisoblanadi. Shu jihatdan, O'zbekistonda ushbu yo'nalishni yanada rivojlantirishda xorijiy yondashuvlarni o'rganish va integratsiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda ma'lumotlar normativ-huquqiy hujjatlar, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki qarorlari, tijorat banklarining rasmiy hisobotlari hamda xalqaro moliyaviy institutlarning tahliliy manbalaridan olindi. Olingan ma'lumotlar qiyosiy tahlil, huquqiy-me'yoriy tahlil va statistik usullar yordamida o'rganilib, kreditlash amaliyotining huquqiy asoslari va ularning samaradorligi baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimizda bozor iqtisodiyoti tamoyillarini bosqichma-bosqich rivojlantirish, moliyaviy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlashda tijorat banklarining kredit siyosati alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, kredit munosabatlarining huquqiy va me'yoriy asoslarini mustahkamlash moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, investorlar ishonchini oshirish va bank tizimining ishonchli faoliyat yuritishini kafolatlashda muhim vosita hisoblanadi.

Bugungi globallashuv va iqtisodiy ochiqlik sharoitida kreditlash mexanizmlarini xalqaro talablarga muvofiqlashtirish, mavjud normativ-huquqiy bazani takomillashtirish zarurati yanada kuchaymoqda. O'zbekistonda kreditlash bilan bog'liq huquqiy munosabatlar bir nechta asosiy hujjatlar — O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonun, Markaziy bankning kreditlash tartibi va ko'rsatmalari bilan tartibga solinadi. Ushbu normativ bazada kredit shartnomalarining tuzilishi, garov bilan ta'minlash, qarzlarning undirilishi, muddati o'tgan kreditlar bo'yicha javobgarlik va bank sirini saqlash kabi jihatlar belgilangan.

Amaliyot tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, huquqiy asoslarni zamonaviy texnologik yuksalish va xalqaro moliyaviy standartlar bilan uyg'unlashtirish imkoniyati mavjud. Turonbank, Hamkorbank va Asakabank singari tijorat banklarida kredit shartnomalarini elektron shaklda rasmiylashtirish jarayoni kengayib bormoqda. Kelgusida bunday shartnomalarning yuridik kuchi, elektron raqamli imzoning to'liq tan olinishi va onlayn baholash tizimlarining huquqiy maqomi qat'iy reglamentlar orqali mustahkamlanishi kutilmoqda. Bu esa kredit bitimlarida taraflar o'rtaсидagi ishonchni yanada oshirish imkonini beradi.

Me'yoriy tartibga solishni rivojlantirish istiqbollari

- Yagona normativ hujjatlarni ishlab chiqish orqali kredit portfelini boshqarish, risklarni baholash va problemali kreditlar bo'yicha zaxira shakllantirish tartibi yagona talqingga ega bo'lishi kutilmoqda. Bu jarayon banklar faoliyatida yagona standartni shakllantiradi.

- Huquqiy tafovutlar bosqichma-bosqich bartaraf etilishi natijasida banklar mijozlarga nisbatan yagona va adolatli yondashuvni qo'llash imkoniga ega bo'ladi. Bu raqobat muhitini sog'lomlashtiradi.

- Raqamli kreditlash yo'nalishida huquqiy asoslar ishlab chiqilishi Fintech kompaniyalari bilan samarali hamkorlikni, masofaviy kredit baholash tizimlari va real vaqtli monitoringni qonuniy asosda keng joriy etishga xizmat qiladi.

Dunyo tajribasida kreditlash mexanizmlarini me'yoriy jihatdan tartibga solish aniq huquqiy aktlar va moliyaviy institutlar faoliyatini nazorat qiluvchi mustaqil organlar orqali amalga oshiriladi. Masalan:

- AQShda Kreditlar bo'yicha iste'molchilar huquqlarini himoya qilish byurosi (CFPB) kredit baholash va shartnoma shaffofligi bo'yicha qat'iy talablar belgilaydi.

- Germaniyada kreditlash Basel III standartlari asosida yuriladi, bunda bank kapitalining yetarliligi va risklar muvozanati normativ tartibda belgilanadi.

- Singapurda esa "Digital Banking Framework" orqali raqamli kreditlash uchun litsenziyalash va muvofiqlik me'yorlari aniq belgilangan.

Ushbu tajribalarni O'zbekiston sharoitida amaliyotga joriy etish quyidagi ustunliklarni beradi:

- Kreditlash munosabatlarining huquqiy barqarorligini ta'minlaydi.
- Elektron kredit tizimlarining qonuniy maqomini mustahkamlaydi.
- Bank-mijoz munosabatlarida huquqiy xavfsizlik darajasini oshiradi.

O'zbekiston tijorat banklarining kreditlash amaliyotida quyidagi normativ-huquqiy islohotlar zarur:


1. Raqamli kreditlash reglamentini ishlab chiqish — onlayn baholash, scoring tizimlari va elektron kredit shartnomalari uchun alohida me'yoriy hujjatlar tayyorlash.

2. Basel III va IFRS 9 standartlariga mos huquqiy adaptatsiya — zaxira shakllantirish, risk baholash va shaffof hisobot berish bo'yicha.

3. Yagona kredit registrini huquqiy asosda yaratish — bu kredit tarixining yuritilishi va qarzdorlik darajasini aniq baholash imkonini beradi.

4. Fintech hamkorligi uchun yuridik asoslar — innovatsion moliyaviy texnologiyalarni qo'llashda litsenziyalash, xavfsizlik va majburiyatlarni aniqlashtirish.

Shu orqali, kreditlash mexanizmining huquqiy va me'yoriy jihatlarini mustahkamlash O'zbekiston bank tizimining barqarorligi va investitsion jozibadorligiga kuchli turtki beradi (1-rasm).



1-rasm. Xorijiy tajribaning O'zbekiston bank tizimiga ta'siri¹

Yuqoridagi diagramma xorijiy tajribaning O'zbekiston tijorat banklari uchun kutilayotgan asosiy afzalliklarini vizual tarzda yoritadi. Sun'iy intellekt asosida ishlab chiqilgan scoring tizimlari eng yuqori samaradorlikka ega ekanligi ko'rinoqda. Shuningdek, real vaqtli monitoring va fintech integratsiyasi kabi yondashuvlar ham sezilarli darajada natija berishi qayd etilgan. Ushbu ko'rsatkichlar tijorat banklari uchun ustuvor yo'nalishlarni belgilashda muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi (1-jadval).

1-jadval. Kreditlash mexanizmning me'yoriy va huquqiy asoslari (O'zbekiston tajribasi)²

Daraja	Huquqiy asos / Hujjat	Izoh
1-daraja	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi	Asosiy konstitutsiyaviy kafolatlar
2-daraja	Markaziy bank to'g'risidagi Qonun (1995)	Markaziy bankning vakolat va funksiyalari
3-daraja	Banklar va bank faoliyati to'g'risidagi Qonun (2005-yil)	Bank faoliyatining umumiy asoslari
3-daraja	Kreditlash to'g'risidagi qonunosti hujjatlar (MB nizomlari, qarorlar)	Kreditlash amaliyotiga oid ichki normativlari
3-daraja	Pul mablag'larini jalb qilish va ajratish tartibi (MB qarori asosida)	Moliyaviy operatsiyalar tartib-taomillari
4-daraja	Kredit siyosati va reglamentlar	Ichki siyosat va reguliyatsiyalar
4-daraja	Kredit portfeli diversifikatsiyasi	Kredit xavflarini taqsimlash yondashuvi
4-daraja	Kredit shartnomasi tuzish tartibi	Kreditlash huquqiy-texnik tartibi

Konstitutsiya moliyaviy faoliyat uchun asosiy huquqiy baza bo'lib, iqtisodiy erkinlik, mulk daxlsizligi va bank tizimining mustaqilligini kafolatlaydi. "Markaziy bank to'g'risida"gi qonun esa banklar faoliyati ustidan umumiy nazoratni belgilab, kredit siyosati, foiz stavkalari, likvidlik va moliyaviy barqarorlikni ta'minlovchi asosiy reguliyator sifatida Markaziy bankning vakolatlarini mustahkamlaydi.

O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 25-apreldagi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi 216-l-son³ Qonun tijorat banklarining kredit berish vakolatlari, xavfsizlik choralarini hamda mijozlar bilan munosabatlarini tartibga soladi. U banklarning faoliyat shakli, tashkiliy tarkibi, hisobot berish majburiyatlari va kreditlashdagi shaffoflik tamoyillarini ham belgilab beradi. Kreditlash tartibi va nizomlari Markaziy bank tomonidan qabul

1 Turonbank ATB (2024). Kredit portfeli va raqamli xizmatlar bo'yicha monitoring hisobotlari. www.turonbank.uz

2 Muallif tomonidan xalqaro moliyaviy tashkilotlar (IMF, World Bank, EBA) materiallari va Turonbank ATB tahliliy asoslari bo'yicha tuzilgan (2024)

3 <https://lex.uz/acts/-2681>



qilinadigan hujjatlar orqali aniqlanadi. Ular kredit siyosatining mezonlari, kredit ajratish tartibi, risklarni baholash va monitoring mexanizmlarini o‘z ichiga oladi. Kredit shartnomalari va ichki siyosatlar esa amaliyat darajasida tatabiq etilib, mijoz bilan tuziladigan shartnomalarning tarkibi, muddati, foiz stavkalari va ta’milot talablari kabi jihatlarni belgilaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekiston tijorat banklarida kreditlash mexanizmining huquqiy asoslarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ushbu tizim puxta qonunchilik bazasiga tayanadi. Konstitutsiyaviy kafolatlar, Markaziy bank to‘g‘risidagi qonun va maxsus qonunlar kreditlash jarayonini tartibga solish bilan birga, bank faoliyatining barqarorligini ham ta‘minlaydi. Ayniqsa, kredit siyosati va ichki nizomlar orqali risklarni kamaytirish, mijozlar bilan shaffof munosabatlarni shakllantirish hamda samarali portfel boshqaruvini yo‘lga qo‘yish imkoniyati yaratiladi.

Shu nuqtayi nazardan, kreditlash mexanizmining huquqiy asoslari nafaqat bank sektorining barqaror faoliyatini, balki mamlakat iqtisodiyotining umumiy rivojlanishini ham qo‘llab-quvvatlaydi. Kelgusida ushbu me'yoriy bazani xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirish, raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish va regulyator nazorat mexanizmlarini takomillashtirish orqali tijorat banklarining kredit siyosatini yanada samarali amalga oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Markaziy bank to‘g‘risida”gi Qonuni. – Qabul qilingan sana: 1995-yil, oxirgi tahriri 2020-yil.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni. – 2005-yil, O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami.
4. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2023-yil va 2024-yillardagi kredit siyosati bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlari (nizomlar, qarorlar va tavsiyalar).
5. Xalqaro valyuta jamg‘armasi (IMF). Financial Soundness Indicators Compilation Guide. – Washington D.C.: IMF Publications, 2021.
6. Jahon banki (World Bank). Banking Regulation and Supervision Survey. – Washington D.C.: World Bank Group, 2022.
7. European Banking Authority (EBA). Guidelines on Loan Origination and Monitoring. – Paris: EBA Publications, 2021.
8. Turonbank ATB yillik moliyaviy hisobotlari va kredit portfeli tahlillari. – Toshkent: Turonbank ATB, 2023–2024 yillar.
9. Axmedov A.X., Karimov B.B. Bank ishi: O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “Iqtisodiyot” nashriyoti, 2022.
10. Mamatqulov O., Soliyev A. Banklar va moliyaviy bozorlar: Nazariya va amaliyot. – Toshkent: Ilm-Ziyo, 2023.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosinganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosingan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100